


Farg'ona viloyatining CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 863,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 86,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 15,2 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 776,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 72,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 %ga o'sgan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Quva, Qo'shtepa, Bag'dod tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,2 %ga o'sdi va 86,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 776,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 2,7 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,0 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



■ Kichik tadbirkorlik
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa t (99,7%), Sox' t (98,9%), Furqat t (98,5 %) Beshariq t (98,3%) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,0% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`na sh (21,5%), Qo`qon sh (12,0%), shaxarlari va Bag'dod tumani (19,4%) da kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	86,3	115,2	704,1	102,9
<i>shaharlar</i>				
Farg'ona	47,8	162,1	161,9	97,1
Qo`qon	15,7	64,9	105,4	112,5
Quvasoy	0,8	173,4	17,2	103,7
Marg'ilon	4,1	67,1	55,2	110,5
<i>tumanlar</i>				
Oltiariq	1,2	115,9	26,0	100,6
Qo`shtepa	0,1	164,2	37,5	101,1
Bag`dod	6,9	393,2	25,1	89,9
Buvayda	0,6	98,2	26,5	100,6
Beshariq	0,5	88,4	28,7	103,6
Quva	1,4	243,7	36,4	100,3
Uchko`prik	0,5	125,1	27,4	100,7
Rishton	1,6	55,1	22,4	109,7
So`x	0,1	162,9	11,7	103,9
Toshloq	1,6	93,3	21,1	107,4
O`zbekiston	0,7	91,7	22,5	102,2
Farg'ona t	0,9	35,5	27,5	107,2
Dang`ara	0,7	130,2	16,4	102,9
Furqat	0,2	110,2	14,5	104,7
Yozyovon	0,8	89,3	20,8	103,5

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 236,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Farg'ona (789,1 ming.so'm), Qo'qon (531,1 ming. so'm) va Marg'ilon (276,1 ming.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston t (111,4 ming.so'm), Dang'ara t (117,2 ming.so'm), va Toshloq t (127,1 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	236,4	102,1
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	789,1	104,7
Qo`qon	531,1	101,4
Quvasoy	217,8	103,6
Marg'ilon	276,1	104,1
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	146,0	99,6
Qo`shtepa	221,7	99,3
Bag`dod	172,4	105,2
Buvayda	136,7	98,8
Beshariq	146,6	101,3
Quva	169,7	100,6
Uchko`prik	140,7	99,1
Rishton	141,2	100,9
So`x	178,2	102,0
Toshloq	127,1	103,9
O`zbekiston	111,4	100,0
Farg'ona t	154,0	99,4
Dang`ara	117,2	101,6
Furqat	143,5	102,7
Yozyovon	230,7	100,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,3 % ni tashkil etib, 10,8 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 247,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,1 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra 198,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,4 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 80,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Quvasoy shahar (100,0%), Qo'shtepa t (100,0%), Furqat t (100,0%), Beshariq t (100,0%) va Quva t (100,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




■ Yirik korxonadlar
■ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 19,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati So'x (10,7%), Bog'dod (10,7%) tumanlari va Farg'ona (52,9%) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	247,4	102,9	48,4	127,3	199,0	97,4
shaharlar						
Farg'ona	84,8	113,0	44,8	139,1	39,9	93,2
Qo'qon	46,0	117,6	2,6	78,4	43,4	121,3
Quvasoy	2,5	50,8	0,0	0,0	2,5	50,8
Marg'ilon	31,5	101,7	0,25	31,8	31,5	101,9
tumanlar						
Oltiariq	7,8	137,7	0,03	42,3	7,7	139,3
Qo'shtepa	0,1	106,1	0,0	0,0	0,1	106,1
Bag'dod	3,3	113,6	0,3	20,6	2,9	246,6
Buvayda	6,4	138,8	0,0	0,0	6,4	138,8
Beshariq	8,2	95,2	0,0	0,0	8,2	95,2
Quva	2,2	170,4	0,0	0,0	2,2	170,4
Uchko'prik	5,2	102,3	0,01	58,5	5,1	103,5
Rishton	1,5	88,6	0,04	58,5	1,5	89,8
So'x	0,1	74,8	0,01	29,4	0,1	107,6
Toshloq	16,5	94,0	15,8	0,0	16,3	93,1
O'zbekiston	5,6	75,5	1,3	58,5	5,6	75,6
Farg'ona t	12,9	84,3	6,9	91,6	12,8	84,2
Dang'ara	8,1	48,0	6,9	58,5	8,0	47,9
Furqat	2,6	174,9	0,0	0,0	2,6	174,9
Yozyovon	2,1	58,6	0,02	58,5	2,1	58,6

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Quvasoy sh (50,8 %), Yozyovon t (58,6%), Dang'ara t (48,0%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18